

UMUMIY SHARTLAR

Turi	Jamg'arma
Valyuta	Milliy valyuta (UZS)
Rasmiylashtirish usuli	Bank bo'limlarida, naqd va naqdsiz shaklda
Muddat	12 oy
Yillik foiz stavkasi	14%
Eng kam summa	0 UZS
To'ldirish	Maxsus hisobvaraq ochilganda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi subsidiyasining o'tkazilishi; mijoz tomonidan shaxsiy hisobvaraqa keyingi to'ldirishlar — cheklovsiz
Qisman muddatidan oldin yechib olish	Kredit bitimi amalga oshmaguncha yoki bekor qilinmaguncha mijoz tomonidan qisman yechib olishga yo'l qo'yilmaydi
To'liq muddatidan oldin olish	Faqat bitimdan bir tomonlama voz kechish tartibi orqali, subsidiyani O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga bir vaqtning o'zida qaytarish sharti bilan amalga oshiriladi. Mijozning o'z mablag'lari hisoblangan foizlari bilan birga qaytariladi; muddatidan oldin qaytarishda belgilangan stavka pasaytirilmaydi
Foiz stavkasining saqlanishi	Mablag'lar muddatidan oldin qaytarilganda (shu jumladan 12 oy tugagunga qadar uy-joy sotib olinganda va kredit berish rad etilganda) shartnomada belgilangan foiz stavkasini pasaytirishga yo'l qo'yilmaydi
Foizlar kapitalizatsiyasi	Ko'zda tutilmagan
Foizlarni hisoblash tartibi	Mablag' kelib tushgan kunning keyingi kunidan boshlab omonat yopilgan kundan oldingi kunga qadar. Foizlar Mijoz mablag'lari va subsidiya mablag'lari bo'yicha alohida hisoblanadi
Foiz daromadini to'lash	Har ikkala hisobvaraq bo'yicha foizlar hisobvaraqlar yopilishida bir yo'la to'lanadi: bitim muvaffaqiyatli bo'lganda — asosiy summa bilan birga quruvchiga; bitim muvaffaqiyatsiz bo'lganda — shaxsiy hisobvaraq bo'yicha mijozga, maxsus hisobvaraq bo'yicha — O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga
Omonatlaringiz kafolatlangan	O'zbekiston Respublikasining 18.02.2025-yildagi O'RQ-1031-son “Banklardagi omonatlarni himoyalash kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni; kafolatlash Omonatlarni kafolatlash agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Mijozning Bankdagi omonatlari jamlanadi, 200 000 000 so'm limiti bir bankda bitta omonatchiga nisbatan qo'llaniladi; subsidiya mablag'lari kafolatlanmaydi



Mobil ilova

QR-kodni skanerlab yuklab oling. To'lovlar va o'tkazmalar bo'yicha ma'lumotlar, xaridlar tarixi, 24/7 moliyaviy xizmatlar imkoniyati

+998(78)150-11-22
info@ipotekabank.uz

MAXSUS SHARTLAR

Mahsulotning maqsadi	Faqat subsidiyalanadigan ipoteka kreditlari bo'yicha boshlang'ich badalni shakllantirish uchun mo'ljallangan
Me'yoriy asos	Mahsulot Iqtisodiyot va moliya vazirligining 12.06.2026-yildagi 375-son hamda Markaziy bank Boshqaruvining 11.06.2026-yildagi 9801-son qarorlari bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq pilot loyiha doirasida amalga oshiriladi (29.06.2026-yilda 3874-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan, 01.07.2026-yildan kuchga kirgan). 01.07.2026-yildan 31.12.2026-yilgacha ochilgan omonatlarga nisbatan qo'llaniladi
Sotib olinadigan uy-joyga qo'yiladigan talablar	Pudrat tashkilotlari tomonidan yangi qurilgan birlamchi bozor kvartiralar, kamida 4 qavatli uylarda; yakka tartibdagi uy-joy yoki noturar binolarni rekonstruksiya qilish yo'li bilan ko'p qavatli uy-joyga o'tkazilgan obyektlarga yo'l qo'yilmaydi
Mijozni qabul qilish mezonlari / murojaat muddati	Subsidiya to'g'risidagi xabarnoma amal qilish muddati ichida Bankka murojaat qilish; hujjatlar Bankning ichki qoidalariga muvofiq bo'lganda Bank hisobvaraqlari uch kunlik muddatda ochadi
Subsidiyaning o'tkazilishi	Mijoz o'z ulushini jamg'arganidan so'ng Bank 2 ish kuni ichida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga ariza yuboradi; O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi subsidiyani 5 ish kuni ichida o'tkazadi
Hisobvaraqlar tuzilmasi	Maqsadli ipoteka omonati hisobvarag'i 20406-balans hisobvarag'ida Mijozning o'z mablag'lari va subsidiya mablag'larini alohida hisobga olgan holda ochiladi
Hisobvaraqdagi mablag'lar tuzilmasi	Ikkita sub-qoldiq alohida hisobga olinadi: (a) O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ulushi — o'tkazilgan subsidiyaning qat'iy summasi va foizlar; (b) mijoz ulushi — mijozning barcha keyingi to'ldirishlari va ularga hisoblangan foizlar
Hisobvaraqlarni boshqarish	Shaxsiy hisobvaraqlar: mijoz hisobvaraqlarini to'ldirishga haqli, kredit bitimi amalga oshmaguncha yoki bekor qilinmaguncha mijoz tomonidan qisman yechishga yo'l qo'yilmaydi, to'liq yechib olish mijoz arizasiga asosan amalga oshiriladi. Maxsus hisobvaraqlar: Bank boshqaruvida bo'lib, mijoz u bo'yicha hech qanday operatsiya o'tkazishga haqli emas
Jamg'armaning maqsadli miqdori	Tanlangan ko'chmas mulk obyekti bo'yicha boshlang'ich badal miqdori bilan belgilanadi. Mijoz 12 oy muddatda ushbu chegaraga yetguncha hisobvaraqlarini to'ldirishi shart. Omonat miqdori ipoteka kreditining eng yuqori miqdoridan hisoblangan boshlang'ich badal va subsidiya summasidan kelib chiqib belgilanadi; uy-joy qiymati oshgan taqdirda farq Mijozning boshlang'ich badalini oshirish hisobidan qoplanadi

HISOBVARAQLARNI YOPISH TARTIBI

Bitim muvaffaqiyatli bo'lishi asoslari	Mijoz tomonidan boshlang'ich badalning to'liq summasi jamg'arilishi va yakuniy skoring natijasining ijobiy bo'lishi
Bitim muvaffaqiyatli bo'lgandagi tartib	Bitim muvaffaqiyatli bo'lganda qurilish (pudrat) tashkilotiga mablag'lar faqat quyidagi ketma-ketlik bajarilgandan so'ng o'tkaziladi: kafolat xatining berilishi, bitimning notarial rasmiylashtirilishi, mulk huquqi va ipotekaning ro'yxatdan o'tkazilishi, kadastr hujjatining rasmiylashtirilishi, ma'lumotlarning O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan tegishli platforma orqali ro'yxatga olinishi. Ko'rsatilgan bosqichlar yakunlangandan so'ng Bank maxsus hisobvaraqlardan qurilish (pudrat) tashkilotiga 30 000 000 so'm subsidiya va unga hisoblangan



Mobil ilova

QR-kodni skanerlab yuklab oling. To'lovlar va o'tkazmalar bo'yicha ma'lumotlar, xaridlar tarixi, 24/7 moliyaviy xizmatlar imkoniyati

+998(78)150-11-22
info@ipotekabank.uz

	foizlarni, qolgan qismini esa mijozning shaxsiy hisobvarag'idagi o'z mablag'lari va ularga hisoblangan foizlaridan o'tkazadi
Bitim muvaffaqiyatsiz bo'lishi asoslari	Mijozning uy-joy sotib olishdan voz kechishi; kredit tarixi va to'lov qobiliyatining Bank ichki qoidalariga muvofiq emasligi; ishonchsiz yoki soxta ma'lumotlar; tanlangan uy-joyning talablarga muvofiq emasligi; mablag'lardan maqsadsiz foydalanish; belgilangan summaning jamg'arilmasligi; omonat muddati tugagunga qadar kredit shartnomasining tuzilmasligi; Mijozning vafot etishi va boshqa fors-major holatlar
Bitim muvaffaqiyatsiz bo'lgandagi tartib	Maxsus hisobvaraqdan 30 000 000 so'm subsidiya hisoblangan foizlari bilan birga O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga qaytariladi. Shaxsiy hisobvaraqdan mijozning o'z mablag'lari hisoblangan foizlari bilan birga mijozga to'liq hajmda to'lab beriladi. Qaytarish tegishli holat qayd etilgan sanadan boshlab 2 ish kuni ichida amalga oshiriladi; o'z mablag'lari foizlari bilan Mijozga, subsidiya hisoblangan foizlari bilan — Mijozning roziligisiz Davlat byudjetiga qaytariladi
Qayta murojaat qilish huquqi	Ipoteka krediti berish rad etilgan taqdirda Mijoz omonat muddati tugagunga qadar qayta murojaat qilishga haqli; murojaatlar soni bo'yicha cheklovlar belgilanmaydi
Cheklovlar	(1) Hisobvaraqlar bo'yicha huquqlarni uchinchi shaxslarga o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi (2) Ushbu mahsulot bo'yicha ikkinchi hisobvaraqni shu bankda yoki boshqa vakolatli bankda ochishga yo'l qo'yilmaydi (3) Mablag'lardan boshlang'ich badalni shakllantirish bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi (4) Shaxsiy hisobvaraqni AML/CFT talablari doirasida manbasi tasdiqlanishi mumkin bo'lmagan mablag'lar bilan to'ldirishga yo'l qo'yilmaydi



Mobil ilova

QR-kodni skanerlab yuklab oling. To'lovlar va o'tkazmalar bo'yicha ma'lumotlar, xaridlar tarixi, 24/7 moliyaviy xizmatlar imkoniyati

+998(78)150-11-22
info@ipotekabank.uz